



Orifjon ABDASOV,
Tadqiqotchisi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand, O'zbekiston
E-mail: orifjon@gmail.com

Professor O.G'aybullayev taqrizi asosida

RAQAMLI DAVRDA INSON MAS'ULIYATI VA SUN'IY INTELLEKT TA'SIRIDA ONTOLOGIK TRANSFORMATSIYALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishi natijasida inson mavjudligi, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxsiy mas'uliyat tushunchasida yuz berayotgan ontologik transformatsiyalar falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning inson faoliyatini yengillashtirishi bilan bir qatorda, qaror qabul qilish, axloqiy tanlov, mualliflik va javobgarlik chegaralariga ta'siri yoritiladi. Insonning raqamli muhitdagi faoliyati texnik vositalar bilan hamkorlikda amalga oshayotgan bo'lsa-da, uning axloqiy subyekt sifatidagi o'rni yo'qolmasligi asoslab beriladi. Tadqiqotda sun'iy intellektni mustaqil axloqiy subyekt sifatida emas, balki inson maqsadi, qadriyati va mas'uliyatining texnologik ifodasi sifatida tushunish zarurligi ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Raqamli davr, sun'iy intellekt, inson mas'uliyati, ontologik transformatsiya, axloqiy tanlov, raqamli subyekt, algoritmlar, texnologik vositalar.

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЧЕЛОВЕКА В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ И ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ПОД ВЛИЯНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация

В статье с философской точки зрения рассматриваются онтологические трансформации человеческого существования, общественных отношений и личной ответственности, происходящие в результате развития цифровых технологий и систем искусственного интеллекта. Раскрывается влияние искусственного интеллекта на процессы принятия решений, нравственного выбора, авторства и определения границ ответственности. Обосновывается, что, несмотря на технологическое опосредование человеческой деятельности, человек сохраняет статус основного нравственного субъекта. Искусственный интеллект предлагается рассматривать не как самостоятельного морального субъекта, а как технологическое выражение человеческих целей, ценностей и решений. Особое внимание уделяется необходимости формирования культуры цифровой ответственности.

Ключевые слова: Цифровая эпоха, искусственный интеллект, ответственность человека, онтологическая трансформация, нравственный выбор, цифровой субъект, алгоритм, технологическое опосредование.

HUMAN RESPONSIBILITY IN THE DIGITAL AGE AND ONTOLOGICAL TRANSFORMATIONS UNDER THE INFLUENCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation

This article provides a philosophical analysis of the ontological transformations occurring in human existence, social relations and personal responsibility as a result of the development of digital technologies and artificial intelligence systems. It examines how artificial intelligence influences decision-making, moral choice, authorship and the boundaries of accountability. Although human activity is increasingly mediated by technological systems, the individual continues to remain the principal moral subject. Artificial intelligence should therefore be understood not as an independent moral agent, but as a technological expression of human goals, values and decisions. Particular attention is paid to the formation of a culture of digital responsibility capable of balancing technological development with human dignity and ethical principles.

Key words: Digital age, artificial intelligence, human responsibility, ontological transformation, moral choice, digital subject, algorithm, technological mediation.

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalar inson hayotining alohida bir sohasi bo'lib qolmay, jamiyat mavjudligining umumiy shartiga aylanib bormoqda. Axborot almashinuvi, ta'lim, mehnat, tibbiyot, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va kundalik muloqot jarayonlari tobora ko'proq algoritmlar, ma'lumotlar bazalari hamda sun'iy intellekt tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Natijada inson faqat texnik vositalardan foydalanuvchi emas, balki raqamli muhit ichida yashaydigan, o'zligini namoyon qiladigan va qarorlar qabul qiladigan subyekt sifatida shakllanmoqda.

Mazkur o'zgarishlar insonning borliqdagi o'rni, erkinligi va mas'uliyati haqidagi an'anaviy falsafiy tasavvurlarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Avvallari qaror qabul qilish bevosita inson tafakkuri va irodasi bilan bog'langan bo'lsa, bugungi kunda ko'plab tanlovlar algoritmik tavsiyalar, avtomatlashtirilgan tahlillar va raqamli platformalar ta'sirida shakllanmoqda. Inson nima o'qishi, qanday mahsulot xarid qilishi, kim bilan muloqot

qilishi yoki qaysi axborotni muhim deb qabul qilishi ko'pincha algoritmik saralash orqali belgilanadi.

Sun'iy intellekt insonning intellektual imkoniyatlarini kengaytiradi, murakkab ma'lumotlarni tez tahlil qiladi va ayrim jarayonlarda xatolarni kamaytiradi. Shu bilan birga, texnologik quylaylik insonni qarorning axloqiy oqibatlaridan uzoqlashtirishi mumkin. "Buni tizim tavsiya qildi" yoki "qarorni algoritmlar chiqardi" kabi qarashlar javobgarlikning noaniqlashtirishiga olib keladi. Holbuki, algoritmlarning ishlash tamoyillari, maqsadlari va foydalanish sohasi inson tomonidan belgilanadi. Demak, sun'iy intellektning faoliyati ortida bevosita yoki bilvosita inson tanlovi mavjud.

Tadqiqotning maqsadi raqamli davr sharoitida inson mas'uliyatining mazmunini ochib berish, sun'iy intellekt ta'sirida yuz berayotgan ontologik o'zgarishlarni aniqlash hamda texnologik

taraqqiyot bilan axloqiy javobgarlik o'rtasidagi munosabatni falsafiy nuqtayi nazardan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada dialektik, tizimli, qiyosiy-tahliliy, fenomenologik va germeneytik metodlardan foydalanildi. Dialektik yondashuv sun'iy intellektning imkoniyatlari va xavflarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Tizimli metod orqali inson, texnologiya va jamiyat yagona ijtimoiy-texnik tizimning tarkibiy qismlari sifatida o'rganildi.

Fenomenologik yondashuv insonning raqamli muhitdagi kundalik tajribasi, o'zligini namoyon etishi va texnologiyaga bo'lgan munosabatini tushuntirishda qo'llanildi. Germaneytik metod esa "inson", "mas'uliyat", "subyekt", "erkinlik" va "sun'iy intellekt" tushunchalarining yangi sharoitdagi mazmunini sharhlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy asosini texnika falsafasi, axborot jamiyati nazariyasi, ekzistensializm, raqamli etika va sun'iy intellekt etikasi doirasidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi. M. Xaydegger texnikani oddiy vosita sifatida emas, balki borliqni ochishning muayyan usuli sifatida talqin qiladi [1]. Ushbu qarash raqamli texnologiyalarning inson dunyoqarashi va borliqni idrok etish shakllariga ko'rsatadigan ta'sirini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar. Raqamli davrda insonning ijtimoiy mavjudligi jismoniy makon bilan cheklanmaydi. Shaxsning raqamli profili, elektron yozishmalari, qidiruv tarixi, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi va biometrik ma'lumotlari uning yangi shakldagi mavjudligini yuzaga keltiradi. Raqamli makondagi faoliyat ko'pincha insonning real hayotdagi mavqeyi, imkoniyatlari va munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi.

Shu ma'noda, zamonaviy inson ikki o'zaro bog'liq makonda yashaydi: an'anaviy ijtimoiy borliq va raqamli borliq. Biroq raqamli mavjudlik insonning oddiy nusxasi emas. Algoritmlar shaxs haqidagi ma'lumotlarni saralaydi, tahlil qiladi va muayyan modellar asosida uning ehtimoliy xatti-harakatlarini bashorat qiladi. Natijada insonning raqamli obrazi ba'zan uning o'zidan ham faolroq ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Masalan, kreditga layoqatlilik, ishga qabul qilish, sug'urta xizmatlari yoki reklama takliflarini shakllantirishda insonning bevosita fikridan ko'ra, u haqidagi ma'lumotlarning algoritmik tahlili ustun bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda shaxsning imkoniyatlari faqat o'z faoliyati orqali emas, balki ma'lumotlar asosida yaratilgan raqamli tasviri orqali ham belgilanadi. L. Floridi bu jarayonni insonning "infosfera" ichidagi axborot mavjudotiga aylanishi sifatida izohlaydi [2].

Raqamli borliqning kengayishi insonning daxlsizligi va shaxsiy hayoti haqidagi tasavvurlarni ham o'zgartirmoqda. An'anaviy jamiyatda shaxsiy hayot muayyan hudud yoki munosabatlar doirasi bilan himoyalangan bo'lsa, raqamli muhitda inson haqidagi ma'lumotlar uzoq muddat saqlanishi, ko'paytirilishi va yangi maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Shuning uchun shaxsiy ma'lumotlarga ehtiyotkorona munosabat raqamli davrdagi mas'uliyatning muhim ko'rinishiga aylanadi.

Sun'iy intellekt tizimlari ayrim hollarda inson faoliyatiga tashqi tomondan o'xshash natijalarni hosil qiladi. Ular matn yaratadi, tasvirlarni tahlil qiladi, tashxis qo'yishga ko'maklashadi va murakkab strategik vazifalarni hal etadi. Biroq funksional o'xshashlik sun'iy intellektning inson bilan bir xil ontologik maqomga ega ekanini anglatmaydi.

Inson qaror qabul qilganda faqat ma'lumotlarni qayta ishlamaydi. U vijdon, tajriba, qadriyat, hamdardlik, ijtimoiy burch va kelajak uchun javobgarlik kabi omillarni ham hisobga oladi. Sun'iy intellekt esa oldindan yaratilgan model, ma'lumotlar va belgilangan maqsadlar asosida ishlaydi. U o'z harakatining axloqiy mazmunini inson kabi anglamaydi.

Shu sababli sun'iy intellektni to'laonli axloqiy subyekt deb baholash bahsli masaladir. Axloqiy subyekt bo'lish uchun muayyan harakatning ma'nosini tushunish, oqibatini oldindan tasavvur qilish, o'zini erkin tanlov muallifi sifatida anglash va

javobgarlikni qabul qilish qobiliyati talab etiladi. Hozirgi sun'iy intellekt tizimlari esa bunday xususiyatlarga insoniy mazmunda ega emas.

Demak, sun'iy intellekt yordamida qabul qilingan qaror uchun javobgarlikni butunlay texnologiya zimmasiga yuklab bo'lmaydi. Bunda tizimni yaratgan dasturchilar, uni joriy qilgan tashkilot, ma'lumotlarni tanlagan mutaxassislar va natijadan foydalangan shaxslar o'rtasida mas'uliyat taqsimlanadi. X. Jonas texnologik taraqqiyot sharoitida inson kelajak avlodlar va uzoq muddatli oqibatlar uchun ham javobgar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [3]. Bu tamoyil sun'iy intellektni ishlab chiqish va qo'llashga ham bevosita daxldordir.

Sun'iy intellektidan foydalanishda asosiy muammolardan biri qaror va tavsiya o'rtasidagi chegaraning noaniqlashishidir. Tizim dastlab yordamchi vosita sifatida qo'llansa-da, vaqt o'tishi bilan foydalanuvchi uning tavsiyalariga tanqidiy tahlilsiz amal qila boshlashi mumkin. Bunday holat "avtomatlashtirishga ishonch" fenomenini yuzaga keltiradi.

Agar shifokor sun'iy intellekt tavsiyasiga asoslanib noto'g'ri tashxis qo'ysa, javobgarlik kimga tegishli bo'ladi? Dastur ishlab chiquvchisigami, tibbiyot muassasasigami yoki tavsiyani tekshirmasdan qabul qilgan shifokorgami? Mazkur savolga faqat texnik yoki huquqiy nuqtayi nazardan javob berish yetarli emas. Chunki muammo insonning o'z vakolatini texnologik tizimga qay darajada topshirishi bilan ham bog'liq.

Inson sun'iy intellektidan foydalanar ekan, o'zining yakuniy qaror uchun javobgarligini saqlab qolishi lozim. Texnologik tizimning yuqori aniqlik darajasi insonning axloqiy nazoratini bekor qilmaydi. Aksincha, qaror qanchalik katta ijtimoiy oqibatlarga ega bo'lsa, uni inson tomonidan nazorat qilish shunchalik muhim bo'ladi.

Sun'iy intellektning xulosalari ko'pincha katta hajmdagi ma'lumotlarga asoslanadi. Agar ma'lumotlarda tarixiy tengsizlik, noto'g'ri tasnif yoki ijtimoiy stereotiplar mavjud bo'lsa, algoritm ularni qayta ishlab, yanada mustahkamlashi mumkin. Shuning uchun algoritmni "xolis hakam" sifatida qabul qilish to'g'ri emas. Har qanday raqamli model muayyan ijtimoiy muhit, maqsad va tanlovlarning mahsulidir [4].

Generativ sun'iy intellektning rivojlanishi mualliflik tushunchasiga ham yangicha mazmun bermoqda. Matn, musiqa, tasvir yoki dasturiy mahsulot yaratishda sun'iy intellektidan foydalanilganda natijaning haqiqiy muallifi kim ekanligi haqidagi savol yuzaga keladi. Bunda foydalanuvchining g'oyasi, texnik topshirig'i, tanlovi va tahriri bilan algoritm hosil qilgan mahsulot o'rtasidagi nisbatni aniqlash muhimdir.

Ijod faqat tayyor mahsulot yaratishdan iborat emas. U maqsadni belgilash, ma'no hosil qilish, qadriyatni ifodalash va natija uchun javob berishni ham o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt turli shakllarni tezkor birlashtirishi mumkin, biroq yaratilgan asarning inson hayotidagi ma'nosini mustaqil ravishda belgilamaydi. Shu sababli sun'iy intellekt yordamida yaratilgan mahsulotdan foydalanayotgan inson uning mazmuni, haqqoniyligi va ehtimoliy oqibatlari uchun mas'ul bo'lib qoladi.

Ilmiy va ta'lim faoliyatida bu masala ayniqsa dolzarbdir. Sun'iy intellektidan tayyor javob olish maqsadida foydalanish shaxsning mustaqil fikrlash, dalillash va xulosa chiqarish qobiliyatini zaiflashtirishi mumkin. Aksincha, undan tahliliy yordamchi, g'oyalarni tekshirish yoki axborotni tartibga solish vositasi sifatida foydalanish bilim olish jarayonini samarali qilishi mumkin. Farq texnologiyaning o'zida emas, balki undan foydalanayotgan insonning maqsadi va mas'uliyatida namoyon bo'ladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari raqamli davrda insonning ontologik maqomi yo'qolmayotgani, balki murakkablashib borayotganini ko'rsatadi. Inson endi faqat tabiiy va ijtimoiy muhit bilan emas, algoritmik tizimlar bilan ham doimiy munosabatga kirishadi. Ushbu munosabat natijasida "raqamli subyekt", "algoritmik boshqaruv", "ma'lumotga asoslangan shaxs" kabi yangi tushunchalar shakllanmoqda.

Ontologik transformatsiya insonning texnologiyaga aylanishini emas, balki uning mavjudligi texnologik vositalar orqali ifodalanayotganini anglatadi. Inson o'z xotirasining bir qismini elektron qurilmalarga, muloqotini platformalarga, qaror jarayonini esa algoritmik tavsiyalarga topshirmoqda. Bu jarayon inson imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq uning mustaqil fikrlashi va javobgarligini susaytirish xavfini ham yuzaga keltiradi.

Raqamli mas'uliyat faqat texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bilan cheklanmaydi. U axborotni tekshirish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, sun'iy intellekt natijalariga tanqidiy yondashish va raqamli faoliyatning uzoq muddatli oqibatlarini anglashni qamrab oladi.

Sun'iy intellektning rivojlanishi inson mas'uliyatini kamaytirmaydi. Aksincha, texnologik imkoniyatlar kengaygani sari javobgarlik ham ortadi. Chunki inson endi faqat o'zining bevosita xatti-harakati uchun emas, balki yaratgan, joriy qilgan yoki nazoratsiz qoldirgan texnologik tizimlarning oqibatlari uchun ham javob bera boshlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, "inson nazorati" tamoyili sun'iy intellekt etikasining asosiy qoidalaridan biri bo'lishi lozim. Inson hayoti, sha'ni, huquqi va kelajagiga ta'sir ko'rsatadigan qarorlar to'liq avtomatlashtirilmasligi kerak. Algoritmik xulosa yakuniy haqiqat emas, balki inson tomonidan tekshirilishi va axloqiy baholanishi zarur bo'lgan vositaviy tavsiyadir.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt etikasi faqat dasturchilar yoki texnologik kompaniyalarning vazifasi sifatida tushunilmasligi kerak. Ushbu masala davlat, ta'lim muassasalari, biznes vakillari, ilmiy hamjamiyat va oddiy foydalanuvchilarning hamkorligini talab qiladi. Raqamli savodxonlik bilan birga, axloqiy

savodxonlikni ham rivojlantirish zarur. Inson texnologiyadan qanday foydalanishni bilishi bilan bir qatorda, undan nima maqsadda va qanday oqibatlar hisobiga foydalanayotganini ham anglay olishi kerak.

Xulosa. Raqamli davr va sun'iy intellektning rivojlanishi inson hayotining tashqi sharoitlarini emas, balki uning mavjudlik, erkinlik, mualliflik va mas'uliyat haqidagi tasavvurlarini ham o'zgartirmoqda. Insonning raqamli profili, algoritmik tavsiyalar va avtomatlashtirilgan qarorlar uning ijtimoiy imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Sun'iy intellekt yuqori darajada rivojlangan texnologik vosita bo'lsa-da, uni mustaqil axloqiy subyekt sifatida talqin qilish uchun yetarli asos mavjud emas. U o'z harakatlarining ma'naviy mazmunini inson kabi anglamaydi va javobgarlikni ongli ravishda qabul qilmaydi. Shu sababli sun'iy intellekt faoliyatining oqibatlari uchun asosiy mas'uliyat inson va ijtimoiy institutlar zimmasida qoladi.

Raqamli muhitda inson mas'uliyatining yangi shakli vujudga kelmoqda. Ushbu mas'uliyat shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, algoritmik tavsiyalarni tekshirish, axborotning haqqoniyligini baholash, texnologiyadan halol foydalanish va uning ijtimoiy oqibatlarini oldindan ko'ra bilishni o'z ichiga oladi.

Sun'iy intellekt insonni axloqiy tanlovdan ozod qilmaydi, balki uning tanlov doirasini kengaytiradi. Tanlov imkoniyatining kengayishi esa javobgarlikning ortishini anglatadi. Shu bois raqamli taraqqiyotning insonparvar yo'nalishini ta'minlash uchun texnologik rivojlanish axloqiy tafakkur, inson qadr-qimmatini va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari bilan uyg'unlashtirilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Heidegger M. The Question Concerning Technology and Other Essays. – New York: Harper & Row, 1977. – 182 p.
2. Floridi L. The Fourth Revolution: How the Infosphere Is Reshaping Human Reality. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 248 p.
3. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. – 255 p.
4. O'Neil C. Weapons of Math Destruction: How Big Data Increases Inequality and Threatens Democracy. – New York: Crown Publishing Group, 2016. – 272 p.
5. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 352 p.
6. Russell S. Human Compatible: Artificial Intelligence and the Problem of Control. – New York: Viking, 2019. – 336 p.
7. Coeckelbergh M. AI Ethics. – Cambridge: MIT Press, 2020. – 248 p.
8. Tegmark M. Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence. – New York: Alfred A. Knopf, 2017. – 384 p.
9. Harari Y. N. Homo Deus: A Brief History of Tomorrow. – London: Harvill Secker, 2016. – 448 p.
10. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2017. – 400 p.